

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI



XORIJ ADABIYOTLARIDA “HAKIMIYA” TASAVVUF MAKTABI

Karimov Nodir*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),**Sharq madaniyati va merosini tadqiq etish ilmiy-tadqiqot markazi direktori,**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Hakim Termiziy, “hakimiya”, xorij adabiyotlari, tasavvuf maktabi

Annotatsiya: Movarounnahr hududida faoliyat yuritgan diniy maktablarning islom taraqqiyotidagi roli masalasi muhim va murakkab mavzulardan bo'lib, uni xorijlik olimlarning Hakim Termiziy ilmiy maktabi xususida so'nggi yillarda bildirgan fikr-mulohazalari orqali aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hakim Termiziyning qaysi maktab vakili sifatida e'tirof etilganligi, “al-hakimiya” oqimi bilan alloma o'rtasidagi aloqadorlik masalasi, Hakim Termiziyning boshqa tasavvufiy oqim va tariqatlarga ta'siri kabi masalalar eng yangi xorij adabiyotlari asosida tahlil qilinishi kerak. Shu sababli quyidagi maqolada “hakimiya” tasavvuf maktabining xorij adabiyotlarida yoritilishi maqsad qilingan.

"HAKIMIYA" SCHOOL OF MYSES IN FOREIGN LITERATURE

Nadir Karimov*Doctor of Philosophy in History (PhD),**Director of the Research Center for the Study of Eastern Culture and Heritage,**Tashkent State University of Oriental Studies**Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Hakim Termizi, "hakimiya", foreign literature, school of Sufism

Abstract: The issue of the role of religious schools operating in the Transoxiana region in the development of Islam is an important and complex topic. It is appropriate to explore this issue through recent opinions of foreign scholars regarding Hakim Tirmidhi's scientific school.

Topics such as Hakim Tirmidhi's affiliation with a particular school, the relationship between the “al-hakimiya” school and scholars, and Hakim Tirmidhi's influence on other mystical

schools and tariqah should be analyzed based on the latest foreign literature. Therefore, the following article aims to examine the “hakimiya” school of Sufism in foreign literature.

«ХАКИМИЯ» ШКОЛА МИСИСА В ЗАРУБЕЖНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Надир Каримов

Доктор философии по истории (PhD),

Директор Научно-исследовательского центра изучения восточной культуры и наследия,

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хаким Термизи, «хакимия», зарубежная литература, школа суфизма

Аннотация: Вопрос о роли религиозных школ, действующих в регионе Трансоксиана, в развитии ислама является важной и сложной темой. Уместно изучить этот вопрос на основе недавних мнений зарубежных ученых относительно научной школы Хакима Тирмизи.

Такие темы, как принадлежность Хакима Тирмизи к определенной школе, отношения между школой «аль-хакимия» и учеными, влияние Хакима Тирмизи на другие мистические школы и тарикат, следует анализировать на основе новейшей зарубежной литературы. Поэтому целью данной статьи является рассмотрение школы суфизма «хакимия» в зарубежной литературе.

KIRISH

Ma'lumki, VIII–XIV asrlar islom dini rivojining yuksak bosqichi bo'lib, aksariyat olimlar bu davrni “islom dinining oltin asri” sifatida e'tirof etganlar. Zero, aynan shu davrda islom sivilizatsiyasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan ko'plab olimlar yetishib chiqqan. Islom dinida tasavvufiy tushunchalar, jumladan “valiylilik”, “so'fiylik” kabi atamalarning mazmun-mohiyatini dunyoviy ilmlar asosida ilk bor ochib bergan mutafakkir alloma Hakim Termiziy ular qatoridan munosib o'rin olgan olimdir.

Termiziyning tarjimaiy holiga oid dastlabki ma'lumotlar o'rta asrlar manbalari hamda uning o'z qalamiga mansub “Abu Abdulloh Muhammad Hakim Termiziy ishining boshlanishi” nomli avtobiografik risolada keltirilgan. To'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn al-Hasan ibn Bishr (ba'zi manbalarda Bashir) al-Hakim at-Termiziy bo'lgan, alloma taxminan 205-320/820-932 yillarda yashab ijod qilgan. U 80 (ba'zi manbalarga ko'ra 400) dan ortiq ilmiy asarlar muallifi bo'lib, Sharq tasavvufshunosligining mashhur namoyandasi hisoblanadi. Odamlar Termiziyning chuqur ilmi va keng dunyoqarashi tufayli “al-Hakim” (donishmand) deb atashgan. Allomaning hayoti arab xalifaligi gullab-yashnagan davrga to'g'ri kelgan va o'z davrdagi ijtimoiy muhit uning yetuk olim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutgan.

NATIJALAR

IX-XII asrlar butun xalifalik hududida diniy va dunyoviy ilmlar rivojlangan. Xususan, Bagʻdod, Kufa, Basra, Madina, Nishopur, Balx, Buxoro, Termiz kabi shaharlarda ilm-fan markazlari vujudga kelgan. Ilm izlovchilar islom dunyosining qayerida salohiyatli olimlar ijod qilayotgan boʻlsa, oʻsha yerga borganlar. Islom dini tarqalgan har bir mintaqa din taraqqiyotida oʻziga xos oʻrin tutgan. Xususan, Bagʻdod huquqshunoslik (ilm al-fiqh) maktabi bilan mashhur boʻlgan. Islom huquqi bilimdonlari (faqihlar) bevosita Abu Hanifa (vaf. 150/767) gʻoyalari asosida faoliyat yuritganlar. Arab tili va grammatikasini oʻrganmoqchi boʻlganlar Basra va Kufada tahsil olganlar. Hadis ilmini oʻrganuvchilar uchun esa Madina va Hijozdan munosibroq joy boʻlmagan. Bu shaharlardagi maktablarda Imom Molik (vaf. 179–180/795–796) gʻoyalari asosida taʼlim berilgan. Islom sivilizatsiyasida Movarounnahr ham katta rol oʻynagan. Bu yerda Imom Buxoriy (vaf. 260/874), Abu Iso Termiziy (vaf. 279/892), Hakim Termiziy kabi islom mutafakkirlari yetishib chiqqan.

Movarounnahr hududida faoliyat yuritgan diniy maktablarning islom taraqqiyotidagi roli masalasi muhim va murakkab mavzulardan boʻlib, uni xorijlik olimlarning Hakim Termiziy ilmiy maktabi xususida soʻnggi yillarda bildirgan fikr-mulohazalari orqali aniqlash maqsadga muvofiq boʻladi.

Hakim Termiziyning qaysi maktab vakili sifatida eʼtirof etilganligi, “al-hakimiya” oqimi bilan alloma oʻrtasidagi aloqadorlik masalasi, Hakim Termiziyning boshqa tasavvufiy oqim va tariqatlarga taʼsiri kabi masalalar eng yangi xorij adabiyotlari asosida tahlil qilinishi kerak.

Aksariyat termiziyshunos olimlar Hakim Termiziyning ilmiy merosini tubsiz ummon sifatida baholashadi. Chunki u oʻz davrining muhaddisi, faqih, mutasavvifi, astronomi, faylasufi, bir soʻz bilan aytganda, “al-hakim”, yaʼni donishmandi boʻlgan. Alloma mazkur sohalarning har biri boʻyicha chuqur ilmiy maʼno-mazmunga ega asarlar yozgan. Xususan, u tasavvuf taʼlimotida “Xatm al-avliyo” nomli kitobi orqali “valiylik nazariyasi”ga asos solgan. Manbalarda koʻrsatilishicha, undan soʻng valiylik haqidagi tasavvurlar bevosita Hakim Termiziy qarashlari taʼsirida shakllangan.

Alloma valiylik haqidagi qarashlarni bir tizimga solish, uning aniq belgilarini koʻrsatish borasida katta natijalarga erishgan. U ilk bor valiylikning belgi va darajalarini aniqlab, “hotam al-avliyo” iborasidan foydalangan. Hakim Termiziyning “xatm ul-anbiyo” — “paygʻambarlik muhri” (Muhammad s.a.v.) boʻlgani kabi “xatm ul-avliyo”—“valiylik muhri” ham mavjudligi, oxiratda barcha anbiyolar “xotamu-l-anbiyo” — Muhammad (s.a.v.) ning shafobatlariga muhtoj boʻlgani kabi, avliyolar ham “Hotamu-l-avliyo”ning shafogatiga muhtoj boʻlishi haqidagi (islom taʼlimotida muqaddam uchramagan) qarashlari turli davrlarda keskin munozaralarga sabab

bo'lgan. Jumladan, Ibn al-Arabiy bu g'oyalarni davom ettirib, o'zining "xatm ul-avliyo" ekanini e'lon qilgan bo'lsa, Ibn Taymiya bu g'oyani kufr deb baholab, al-Hakim at-Termiziyini ham, Ibn al-Arabiyni ham keskin tanqid qilgan.

Hakim Termiziyning ilmiy merosi borasida g'arb mamlakatlarida talaygina ishlar amalga oshirilgan. Xorijlik olimlar Hakim Termiziy asarlarini tadqiq etishining sabablaridan biri uning chuqur ilmiy asosga ega asarlar yozganligidir. Qolaversa, allomaning ilmiy merosi borasidagi bahsli masalalar ham ularni tadqiq etishga undagan bo'lishi mumkin. Xususan, "Xatm ul-avliyo" kitobi sababli uning dinsizlikda ayblanishi, e'tiqod va axloq asoslariga qarshi borganlikda, valiy larni nabiy lardan ustun qo'rganlikda ayblanishi, qolaversa, uning "Hotam al-anbiyo" bo'lganidek, "Hotam al-avliyo" ham borligi haqidagi mulohazalari xorijlik tadqiqotchilarda qiziqish uyg'otgan.

G'arbda Hakim Termiziy ilmiy merosining ko'lami va tasavvufiy qarashlariga oid dastlabki tadqiqotlar muallifi Lui Massinyondir. Uning 1922-yil e'lon qilingan "Musulmon tasavvufining texnik leksikasining kelib chiqishi haqidagi insho" ("Essai sur les origines de la technique de la mystique musulmane") nomli asarida allomaning qaysi maktab vakili bo'lgani bayon qilinmagan, ammo Hakim Termiziy "malomatiya" tasavvuf maktabiga katta ta'sir ko'rsatgani, Ibn Arabiy falsafiy dunyosining asoslarini yaratgani, naqshbandiylik tariqatining ustunlarini belgilab bergani ta'kidlangan.

Hakim Termiziy faoliyatining yo'nalishi, uning qaysi ilmiy maktabga mansubligi borasidagi fikrlar bilan allomaning ustozlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'zaro bog'liq bo'lib, Muhammad Ibrohim al-Jiyushiyning tadqiqotlarida Hakim Termiziyga ustozlik qilgan shaxslar to'g'risida faktlar keltirilgan. Xususan, al-Jiyushiyning "Hakim Termiziy, uning asarlari va so'fiylikka oid fikrlari" nomli doktorlik dissertatsiyasida Hakim Termiziyga uning otasi Ali ibn al-Hasan hamda Xizr alayhissalom ustozlik qilgani haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, al-Jiyushiy Hakim Termiziy keltirgan hadislarning kimga tegishliligiga qarab, allomaning taxminan 164 nafar ustozini qayd etgan, qolaversa, alloma ustozlarining ismlari hamda hayoti va faoliyati to'g'risida ham qisqa ma'lumotlar bergan.

Tadqiqotchi manbalarga asoslanib, Hakim Termiziyning Ja'far ibn Haysom (vaf. 360/971), Abu Bakr al-Varroq Muhammad al-Hakim (vaf. 294/906 — 907), Yahyo ibn Mansur al-Qoziy (vaf. 350/961), Ahmad Ibn Muhammad ibn Iso, Al-Hasan ibn Ali al-Juzjoniy, Mansur ibn Xolid al-Haraviy degan (6 nafar) shogirdlari bo'lganligini ham ta'kidlaydi. Shuningdek, al-Jiyushiy Hakim Termiziyning Balxga sayohati to'g'risida ham fikr bildirib, mahalliy aholi bilan g'oyaviy qarashlarida o'xshashlik bo'lgani bois Hakim Termiziy balxlik olimlar tomonidan iliq kutib olinganligini, mazkur sayohat sababli olim nafs masalasida yangi nazariyalar yaratganligini

e'tirof etgan. Tadqiqotchi o'z fikrlarining isboti sifatida olimning Muhammad Ibn Fazl (vaf. 319/931-y.) va Abu Usmon Said al-Hiriy (vaf. 298/911-y.)ga yo'llagan maktublarini keltirgan. Ta'kidlash joizki, Muhammad Ibn Fazl va Abu Usmon Said al-Hiriy o'z davrida Balxning eng mashhur olimlari hamda malomatiylik tariqatining yetakchilari hisoblangan. Al-Jiyushiyning fikrlaridan Balx sayohati tufayli Hakim Termiziy malomatiylik tariqati bilan yaqindan tanishganligini, tariqat g'oyalari unga qattiq ta'sir qilganini anglash mumkin. Tadqiqotchi ushbu holatni allomaning nafs tabiati haqida yozgan asarlarida malomatiylik kayfiyati aks ettirilgani bilan izohlashga uringan. Lekin tadqiqotchining bu fikri bahsli bo'lib, aslida, malomatiylik tariqati vakillari allomaning g'oyalaridan ta'sirlanganligini kuzatish mumkin.

Xususan, "Lison al-Mezon", "Tazkirat al-Huffoz" kabi tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar Hakim Termiziyning Balxga sayohati yoki "quvg'in" bo'lishi uning hayoti nihoyasida yuz berganidan dalolat beradi. Allomaning sayohatga chiqishidan avval yozgan "Xatm ul-avliyo" va "Ilal ash-Sharia" kabi asarlari tanqidga uchragan edi. Bundan shuni anglash mumkinki, Hakim Termiziy bu vaqtga kelib olim sifatida tanilgan va o'ziga xos fikr-mulohazalarga ega bo'lgan. Malomatiylik vakillari bilan esa u o'z g'oyalarini bo'lishgan, shuningdek tariqat yo'nalishlaridagi ixtiloflarni tanqid qilgan. Malomatiylik, karromiylik maktablarini tadqiq etgan Sara Sviri esa Hakim Termiziyning ijodini alohida maktab sifatida tadqiq etishni taklif etgan.

Ta'kidlash o'rinliki, Al-Jiyushiyning tadqiqotlari Hakim Termiziy malomatiya tariqatidan ta'sirlanmaganligini, aksincha, malomatiya vakillari bilan ilmiy bahslar davomida ularni tanqid qilganligini, pirovardida malomatiylik namoyandalari alloma nazariyasidan ta'sirlanganligini ko'rsatdi.

Hakim Termiziy qaysi ilmiy maktabga mansubligi borasida aytilgan mulohazalar keyinchalik ham davom etgan. Shu o'rinda Anna Mariya Shimmelning 1975-yilda chop etilgan "Islomning tasavvufiy jihatlari" kitobini eslash joiz. Muallifning qayd etishicha, "Sahl Abdulloh at-Tustariyning yosh zamondoshlaridan biri Hakim Termiziy bo'lib, ismidagi "hakim" so'zi uning yunon falsafasini o'zlashtirganidan darak beradi. Qolaversa, Termiziy Balx va Iroqda uzoq yillar yashab, shofeiylilik maktabi sirlarini o'rgangan hamda X asr boshlarida Makka shahrida vafot etgan". A. Shimmelning fikricha, Hakim Termiziy Shaiq al-Balxiy (vaf. 194/810-y.) va Hatim al-Asomning (vaf. 237/852-y.) Balxdagi yangi afltunchilik tasavvuf maktabida tahsil olgan. A. Shimmel g'oyalari kelgusida ham davom ettirilgan bo'lib, bu borada Jozef Marichal va Olgar Soroldning 2004-yilda chop etilgan "Mutasavviflar psixologiyasi" kitobida keltirilgan ma'lumotlarni eslash o'rinlidir. Asarda qayd etilishicha, Hakim Termiziy yunon falsafasini

yaxshi bilgan birinchi musulmon mutasavvifi bo'lgan, hech qaysi tasavvuf maktabiga a'zo bo'lmagan, Kufa va Bag'dod so'fiylariga katta ta'sir ko'rsatgan.

1996-yilga kelib bu fikrni Bernd Ratdke inkor etgan. Ratdkening xulosalariga ko'ra, Hakim Termiziy yunon falsafasini o'rganmagan, u faqat islom ilmlari bilan shug'ullangan, "hakim" yoki "hakimiylik" Movarounnahrda ta'lim olgan islom mutasavviflariga nisbatan ishlatilgan. Qolaversa, Bernd Ratdke Hakim Termiziyni so'fiy deb hisoblamagan. U Abdulloh al-Ansoriy va Abu Bakr al-Varroqning fikrlariga tayanib, "hakim" martabasini allomaga zamondoshlari berganligini qayd etgan.

Bu xususida A. Shimmel bilan bir vaqtda ijod qilgan tadqiqotchi Jeklayn Chabbinning fikri ham ahamiyatli bo'lib, alloma zamonida "hakim" atamasi inson ruhiyati bilan bog'liq bilimlarni egallagan shaxsga nisbatan ishlatilgan. Demak, Hakim Termiziy ijodida Anna Mariya Shimmel qayd etgan yunon ilmiy maktabining ta'siri masalasi biroz chalkash bo'lib, uni chuqur tadqiq etish lozim.

XX asrning 80-yillarida ham Hakim Termiziyning ilmiy maktabi, uning ustozlari haqidagi bahsli fikrlar davom etib, bu borada Julian Boldikning 1989-yilda chop etilgan "Tasavvufiy islom: so'fizmg kirish" kitobini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Asarda keltirilgan Hakim Termiziyning tasavvufdagi o'rni, ilmiy merosiga doir ma'lumotlar bilan birga, muallifning Termiziy o'z ustozlari haqida bildirgan fikrlarining tahlili ham ahamiyatlidir. Xususan, Julian Boldikning fikriga ko'ra, Hakim Termiziyning ustози bo'lmagan, u o'qiganlaridan o'rgangan, ustozdan ilm olgan-olmagani haqida aniq gap aytmagan; aksincha, insonni boshqa birovga tobe bo'lmashlikka chaqirgan.

Julian Boldik Hakim Termiziyning valiylik nazariyasi qayerdan kelib chiqqani borasida ikki taxminiy mulohaza borligini qayd etgan: birinchisiga ko'ra, allomaning valiylik nazariyasiga xristianlik dini ta'sir etgan bo'lib, uning gnostik ilmlari xristianlik tushunchalaridan olingan; boshqasiga ko'ra, Hakim Termiziy shimoli-sharqda shakllangan shomonlikdan ilhomlangan, u shomon bo'lgani uchun keyinchalik so'fiy sifatida tan olinmagan.

Holbuki, bu kabi mulohazalarni Julian Boldikdan avval ijod qilgan Iv Marke, Bernd Ratdke ham, XXI asr tadqiqotchilari ham tanqid qilganlar. Xususan, Sara Sviri va Jenevyev Gobiyning J. Bolduk mulohazalariga qarshi bildirilgan mulohazalari ana shular jumlasidandir.

Allomaning hayoti va faoliyati xususida olib borilgan tadqiqotlar tahliliga suyanib aytish mumkinki, J. Boldik ilmiy asosi bo'lmagan fikrlarni taqdim qilgan yoki Hakim Termiziyning ilmiy merosi, tasavvuf ta'limoti hamda islom diniga oid bilimlardan bexabar bo'lgan. Qolaversa, u allomaning inson boshqa birovga tobe bo'lmashligi haqida aytgan gaplarini noto'g'ri talqin qilgan. Hakim Termiziy asarlarida insonni boshqa insonga emas, balki Allohga ishonishga

chaqiruvchi g'oyalar mavjud bo'lib, "Yashirin masalalar" ("Masoil al-maknuna") kitobida Allohga ishonish va iymon keltirish xususida quyidagi fikrlarni uchratish mumkin: "Biror bir Tavhid sohibi yo'qki, uning qalbi Allohga bog'liq bo'lmagan bo'lsa. Bu Imonning shartidir. Shuning uchun ham Alloh taolo: "Ey Muso, agar muhabbating mendan uzilsa, Mendan boshqa ip bog'lanmaydi", — dedi. Bu g'oya oyati kalimalarda ham kelgan: "Bas, kim shaytonni (yoxud butlarni) inkor etib, Allohga Imon keltirsa, demak, u buzilmas, ishonchli halqani tutibdi" (Baqara surasi, 256-oyat)".

XXI asrga kelib globallashuv jarayonining tezlashuvi, jahon xalqlari orasida islom dinining keng tarqalishi, turli mintaqalarda yuz bergan terrorchilik harakatlari natijasida islom dinining fundamental tushunchalarini o'rganishga qiziqish ortdi. Qolaversa, musulmon davlatlari tarixini o'rganish doirasida yirik tadqiqotlar o'tkazildi. Ularning tadqiqotimiz uchun muhim jihatlaridan biri esa ularda Hakim Termiziy haqida ma'lumotlar borligidir. Xususan, 2008-yil Kembrij universitetida nashr qilingan "Eron tarixi" nomli ensiklopedik asarning 4-jildida Hakim Termiziy va uning so'fiylikdagi o'rni borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Ensiklopediyada Hakim Termiziy Xuroson maktabining vakili sifatida qayd etilgan hamda "karromatiya" tariqatining asoschisi Ibn Karramning (vaf. 255/869) so'fiylik qarashlariga ergashganligi ta'kidlangan. Qolaversa, "Hakim Termiziyga "hakim" yoki "mutasavvif" nomi uning tasavvuf va gnostikadagi (bilish nazariyasidagi) serqirra ijodi sababli berilganligini, allomaning so'fiyona qarashlari keyinchalik Ibn Arabiy (vaf. 637/1240), Jili (vaf. 827/1424) va boshqa olimlar tomonidan to'ldirilganligini, Hakim Termiziyning ilmiy merosi so'fiylik bilangina cheklanib qolmaganligini, asarlarining aksariyati Qur'oni karim, hadisi sharif, kalom va fiqh ilmlariga bag'ishlanganligini asoslashga harakat qilingan. Shuningdek, Hakim Termiziyning barcha asarlarida so'fiylik g'oyalarining ta'sirini sezish mumkinligi, bu borada alloma ko'pincha Ibn Karramga ergashgani qayd etilgan. Bundan anglash mumkinki, alloma o'zi yashagan davrgacha yaratilgan ishlarning aksariyatini bilgan va ulardan unumli foydalangan.

Ensiklopediyada Hakim Termiziyning eng yirik asarlaridan biri bo'lgan "Xatm ul-avliyo"ga to'xtalib, unda "avliyolik" va "nabiylik" o'rtasidagi farq va o'xshashliklar ko'rsatilgani qayd etilgan. Shuningdek, Ibn Arabiyning "Futuhot al-makkiya" kitobida bu fikrlar rivojlantirilgani, Hakim Termiziy qadimgi yunon falsafasi bilan tanishgan birinchi so'fiy bo'lgani, alloma Ibn Arabiy maktabining ustunlarini yaratgani hamda "naqshbandiylik" tariqati uchun asos bo'lgan asarlar muallifi bo'lgani ta'kidlangan. Yuqoridagi ma'lumotlardan Hakim Termiziy "xurosonlik" va "karromatiya" vakili degan xulosa shakllanadi. Aslida esa, tadqiqotda "Xuroson" deganda hozirda Eron Islom Respublikasi tarkibiga kiruvchi viloyat emas, balki "Katta Xuroson", ya'ni o'rta asrlarda Eronning uch viloyati, Afg'oniston hamda hozirgi

Turkmaniston, O'zbekiston va Tojikistonning aksariyat hududlarini o'z ichiga olgan makon, ya'ni Movarounnahr ham nazarda tutilgan.

Ta'kidlash joizki, Hakim Termiziy g'oyalarining karromatiya ta'limoti bilan bog'lanishiga Lui Massinyon va Mufid Muhammad Nuriy qayd qilgan xulosalar sabab bo'lgan. Tadqiqotchilarning yozishicha, Hakim Termiziy va Ibn Karram "Azob al-qabr" degan asar yozgan bo'lib, ushbu jarayon ikki alloma hamkorlik qilganidan darak beradi. Haqiqatan ham, Hakim Termiziyning "Azob al-qabr" nomli kitob yozganligi Abulhasan Ali ibn Usmon al-G'aznaviy al-Jullabiy Hujviriyning "Kashf al-mahjub" asarida ham qayd etilgan. Ushbu kitobning asl yoki ko'chirma nusxalari hamon topilmagan. Shu bois "Azob al-qabr" kitobidagi g'oyalarning Ibn Karram fikrlariga qanchalik yaqin bo'lgani haqida aniq xulosa chiqarish qiyin. Faqat kitobning nomidangina kelib chiqib, Hakim Termiziy "karromatiya" vakili deb hisoblash esa to'g'ri bo'lmaydi.

Tasavvuf va so'fiylik haqidagi bahslar 2012-yilda ham davom etgan. Bu borada Nayl Grinning "So'fizmning global tarixi" nomli asari e'lon qilinganligini e'tirof etish joizdir. Uning xulosalariga ko'ra, Xuroson hududida Iroq so'fiylik maktabidan keskin farq qiluvchi uchta oqim bo'lgan. Bular karromatiya, malomatiya va hakimiya yo'nalishlari bo'lib, ulardagi tasavvufiy g'oyalar bir-biridan farq qilgan.

Tadqiqotimizning ushbu qismida muhokama qilinayotgan muammolar doirasida Nayl Grinning hakimiya yo'nalishiga doir fikrlarini ham tahlil qilamiz. Xususan, uning yuqorida keltirilgan kitobida bunday deyilgan: "Iroq so'fiylaridan farqli oqimlardan biri hakimiylik bo'lib, u hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismi, Termiz va Balx hududlarida vujudga kelgan. Hakimiylik alohida tariqat bo'lsa-da, karromatiya yoki malomatiyadek ta'sirga ega bo'lmagan. Hakimiylarda "aristokratik" xususiyatlar ko'zga tashlanadi, ya'ni ular o'zlarini "Allohning do'stlari" deb e'lon qilganlar. Faqat yetakchilarigina "hakim" nomiga loyiq bo'lgan. Ularning eng taniqli vakili Hakim Termiziydir".

Allomaning qarashlari malomatiya va karromatiya vakillaridan har tomonlama farq qilgan. U Qur'on, hadis, fiqh va kalom ilmlarini chuqur egallagani bilan ham boshqalardan ajralib turgan. Qolaversa, alloma o'zi haqida avtobiografik asar yozib, unda o'zi hamda ayolining tasavvufiy qarashlarini ham aks ettirgan. Asosan, ayolining tushlari haqidagi suhbatlarda o'z ta'limotining asoslarini ochib bergan. Bu usul boshqa tariqatlarda uchramaydi.

N. Grin keltirgan ma'lumotlardan shuni anglash mumkinki, muallif Hakim Termiziy asos solgan "hakimiya" tariqatining mohiyatini tushunishga jiddiy kirishgan va mintaqada keng yoyilgan boshqa tasavvuf yo'nalishlaridan farqli jihatlarni topishga hamda Markaziy Osiyo aholisining "hakimiya" tariqatiga ergashgan qatlamini aniqlashtirishga uringan. Ushbu jarayon

so'nggi yillarda xorijiy tadqiqotchilar allomaning ilmiy faoliyatini o'rganish borasida bajargan ishlarda tadqiqot usullari takomillashganligini ko'rsatmoqda.

Aleksandr Knishning 1999-yilda e'lon qilingan "Islom tasavvufining qisqacha tarixi" nomli asari 2015-yilda to'ldirilgan va qayta ishlangan holda chop ettirildi. Asarning 1999-yilgi nashrida Hakim Termiziyning valiylik nazariyasi shakllanishiga shia imomlari jiddiy ta'sir ko'rsatgan, degan xulosa chiqarilgan bo'lsa, 2015 yilgi nashrida muallifning fikrlarida ayrim o'zgarishlar bo'lganini ko'rish mumkin. Xususan, kitobning yangi nashrida Xuroson va Basra hududlarida mavjud bo'lgan zohidlik va tasavvuf harakatlariga ham e'tibor qaratilib, mazkur mintaqalarda tashkil topgan tasavvuf maktablari, ularning eng mashhur vakillari, so'fiylik tariqatlarining o'zaro munosabatlari kabi masalalar tadqiq etilgan.

Shuningdek, asarga "Alohida vaziyatlar: al-Niffariy (vaf. 366/977), at-Termiziy va Ibn Masarra (vaf. 319/931)" nomli maxsus qismlar ham kiritilgan bo'lib, ularda mazkur tasavvuf ulamolari hech bir tasavvuf maktabining vakili bo'lmagan, degan xulosa chiqarilgan. A. Knishning qayd etishicha, "yana bir o'zgacha qarashlarga ega bo'lgan tasavvuf olimi Hakim Termiziy bo'lib, uning qarashlari an'anaviy Iroq tasavvuf maktabi qarashlaridan mutlaqo farq qilgan. Ba'zi tasavvuf olimlari Hakim Termiziyning keyinchalik sharqiy musulmonlarda shakllangan "al-hakimiya" so'fiylik tariqatining vakili sifatida qayd etishgan.

"Al-hakimiya" tariqatining Xuroson va Movarounnahrda yashab, ijod qilgan vakillariga geografik hudud nuqtayi nazaridan qaralsa, ularning "karromiylik" tariqati bilan aloqalari bo'lishi kerak, holbuki "hakimiya" tariqatining tasavvufiy qarashlari so'fiylik va karromiylikdan ancha mukammalroq bo'lgan. Qolaversa, ular o'z asarlarida ham "oddiy" so'fiylardan ancha ustun bo'lganliklarini yozib qoldirgani e'tirof etilgan.

XXI asrga kelib g'arb davlatlari ilm-fanida tasavvuf va tariqatga oid tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarilib, ularning ilmiy qiymati oshgan. Ushbu holatni bir muallifning turli davrlarda yozilgan ikki asari misolida kuzatish qiziq, albatta.

A. Knishning fikrlari boshqa g'arb tadqiqotchilari tomonidan ham davom ettirilgan bo'lib, bu holat Hakim Termiziyning ilmiy maktabini o'rganishga qaratilgan tadqiqot ishlarini ko'paytirish lozimligidan dalolat bermoqda.

Xususan, hozirgi vaqtda Amerika Qo'shma Shtatlarida faoliyat yuritayotgan islomshunos olim Ayub Palmerning Hakim Termiziy ilmiy merosini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti ana shular jumlasidandir. Olimning xulosalariga qaraganda, Hakim Termiziy ilmiy merosiga oid tadqiqotlarning hech birida allomaning ilmiy maktabi haqida so'z yuritilmagan. Bernd Radtke, Iv Marke, Sara Sviri, Jenevyev Gobiya va Abdulloh Barakaning Hakim Termiziy haqidagi tadqiqotlarida aynan ilmiy maktab borasidagi fikrlar uchramaydi. Ular asosan Hakim Termiziy

o'ziga xos qarashlarga egaligini, zamonasining ilg'or olimlaridan bo'lganligini qayd etish bilan cheklanganlar. A. Palmer fikrini davom ettirib, "hakimiya" harakatini jiddiy o'rganish lozimligini ta'kidlaydi, Hakim Termiziyning Ibn Arabiy maktabi va Shoziliya tariqatiga ta'siri masalalariga ko'proq to'xtalish kerakligini qayd etadi. Shu bilan birga, muallif Ibn Arabiy va Hakim Termiziyning qarashlaridagi o'xshash va farqli jihatlarni ham ko'rsatib o'tgan.

Darhaqiqat, Ibn Arabiy hayoti va ijodi yuzasidan ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa-da, uning Hakim Termiziy bilan aloqalari deyarli o'rganilmagan. Ibn Arabiyning yaxshiroq anglash uchun esa Hakim Termiziyning kitoblarini o'qish va tushunish kerak, chunki Hakim Termiziyning nazariyasi Ibn Arabiyning asarlari uchun asos bo'lgan. Ibn Arabiyning asarlarini Hakim Termiziy ilmiy merosining mantiqiy davomi deb hisoblash mumkin.

Ayub Palmerning asarida esa mazkur muammolarga e'tibor qaratilib, "hakimiya" bilan "shoziliya" tariqatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qilingan. Ayub Palmerning xulosasiga ko'ra, Abulhasan ash-Shoziliy (1196/97–1258) o'z davrida Termiziyning asarlarini chuqur o'rgangan va allomaning g'oyalarini o'z tariqatiga uning ustunlari sifatida singdirgan. Muallifning ushbu xulosasini katta yutuq deb baholash joiz, chunki shoziliya tariqatining Hakim Termiziy bilan bog'liqligini faqat Richard Makgrigor qisman tadqiq etgan.

Bu masalada o'zbek olimlari ham turli fikrlarni bildirganlar. Xususan, "al-hakimiya"ni Usmon Turar va Najmiddin Komilov tariqat sifatida e'tirof etgan bo'lsalar, Jo'rabek Cho'tmatov — "ta'limot" deb, Ubaydullo Uvatov esa mazhab deb baholagan.

2016-yilga kelib bizga qo'shni respublikalarda ham Hakim Termiziyning ilmiy merosiga e'tibor kuchaydi. Xususan, Tojikistonda "Hakim Termiziy davrining tarixiy-madaniy an'analari va uning jahon sivilizatsiyasidagi o'rni" mavzusida ilmiy konferensiya tashkil etildi. Mazkur anjuman materiallari alohida to'plam sifatida e'lon qilingan bo'lib, uning kirish qismi mamlakat Prezidenti Emomali Rahmonning alloma haqidagi so'zlari bilan boshlangan. Uning fikricha, Hakim Termiziy naqshbandiya tariqatining yaratilishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan, naqshbandiylikning asoschisi Hoja Bahouddin Buxoriy (vaf. 791/1389) o'z tariqatini tabarruk shayxlar, jumladan "avliyolarning eng yetugi" bo'lgan Hakim Termiziyning asarlarini o'rganish natijasida yaratgan. Qolaversa, Emomali Rahmonning fikricha, Muhammad al-G'azzoliy (vaf. 504/1111) va Ibn Arabiy (vaf. 637/1240) hamda boshqa ko'plab mutasavviflar allomaning ilmiy merosidan keng foydalanganlar. Ahmad ibn Muhammad ibn Iso, Abu Muhammad ibn Yahyo ibn Mansur Qozi, Mansur ibn Abdulla ibn Xolid Hiraviy, Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Haysom, Hasan ibn Ali Juzjoniy, Abu Bakr Varroq Termiziy kabi olimlar Hakim Termiziy maktabining dastlabki vakillari bo'lgan.

XULOSA

Hakim Termiziyning ilmiy faoliyatiga ta'sir etgan va u yaratgan ilmiy maktablar xususida xorijlik olimlarning fikrlarini o'rganib, yakuniy xulosaga kelishdan avval alloma bilan bir zamon va makonda yashab ijod qilgan tadqiqotchilarning fikrlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xususan, o'rta asrlarda yashagan olim Abu-l-Hasan Ali ibn Usmon al-G'aznaviy al-Jullabiy Hujviriy (vaf. 1072–77) Hakim Termiziyning maktabi borasida o'z fikrlarini bildirgan. Ulardan shuni anglash mumkinki, yuqorida qayd etilgan Bernd Ratdke, Aleksandr Knish, Ayub Palmerning "hakimiylik" masalasidagi qarashlariga aynan Al-Hujviriyning "Kashf al-Mahjub" asari asos bo'lgan. Unda yozilishicha, Xuroson hududida "hakimiya" (donolik) nomli tariqat paydo bo'lgan va ko'plab so'fiylar tahsil olgan. Uning asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hasan Termiziy bo'lib, o'z davrida Hakim Termiziy nomi bilan mashhur bo'lgan. Al-Hujviriy "hakimiya"ni "ahl as-sunna va jamoa" tomonidan tan olingan eng yaxshi tasavvuf tariqatlari o'ntaligiga kiritgan.

"XIII asrda Hindistonning diniy va siyosiy qiyofasi" nomli tadqiqot muallifi Xoliq Ashraf Nizomiy ham islom dinidagi 12 ta tasavvuf maktabi borasida so'z yuritib, "hululiyalar", "hallojiylar", "tayfuriylar", "qassoriylar", "xarroziylar", "xufayfiylar", "sayyoriylar", "muhasibiylar", "tustariylar" va "hakimiylar", "nuriylar", "junaydiylar"ni sanab o'tgan, "hakimiya" tariqatining asoschisi sifatida esa Hakim Termiziyni ko'rsatgan. Nizomiy alloma haqidagi fikrlarini davom ettirib, uning avliyolik haqidagi ta'limotini hamda avliyolik darajalarini birinchilardan bo'lib belgilaganligini e'tirof etgan.

Mazkur qismda ishga jalb etilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, G'arbda Hakim Termiziy faqih, muhaddis, mutasavvif, astronom, faylasuf olim sifatida tanilgan bo'lib, mazkur sohalarning har biri bo'yicha chuqur ilmiy ma'no-mazmunga ega asarlar yozganligi uchun uning ilmiy merosi tadqiqotchilar tomonidan yuqori baholangan. Xususan, allomaning tasavvuf ta'limotiga doir "Xatm al-avliyo" nomli kitobida "valiylik nazariyasi"ga doir qayd etilgan ma'lumotlar ko'plab muhokamalarga sabab bo'lgan. Asarda alloma valiylik haqidagi qarashlarni bir tizimga solgan holda uning aniq belgilarini ko'rsatib bergan.

Qolaversa, G'arb tadqiqotchilari tomonidan Hakim Termiziyning ilmiy maktabi xususida turli mulohazalar yuritilgan bo'lib, "al-hakimiya" oqimi bilan alloma o'rtasidagi aloqadorlik, Hakim Termiziyning boshqa tasavvufiy oqim va tariqatlarga ta'siri kabi masalalar ko'pchilikni tashkil etadi. Tadqiqotlarning aksariyatida Hakim Termiziy Xuroson maktabining vakili sifatida qayd etilgan hamda "karromatiya" tariqatining asoschisi Ibn Karranning so'fiylik qarashlariga ergashganligi, kelgusi davrlarda esa allomaning so'fiyona qarashlari Ibn Arabiy tomonidan rivojlantirilganligi ta'kidlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. *George Saliba*. A History of Arabic Astronomy: Planetary Theories During the Golden Age of Islam. New York University Press, 1994. — P. 245, 250, 256–57; *King David A*. The Astronomy of the Mamluks. Isis. 74 (4): 1983. Rp.531–55; *Hassan Ahmad Y*. Factors Behind the Decline of Islamic Science After the Sixteenth Century. In Sharifah Shifa Al-Attas. Islam and the Challenge of Modernity, Proceedings of the Inaugural Symposium on Islam and the Challenge of Modernity: Historical and Contemporary Contexts. Kuala Lumpur, August 1–5, 1994. International Institute of Islamic Thought and Civilization (ISTAC), 1996. — P. 351–399.

2. Mazkur kitobda yozilishicha, uning otasi va bobosi o'z davrida hadis ilmining bilimdonlari bo'lgan. Hakim Termiziy ilm-ma'rifat qadrlanadigan, ziyoli xonadonda dunyoga kelgan va mana shu ilmiy-ma'naviy muhitda ulg'aygan. Mazkur omillar ta'sirida uning ma'naviy dunyosi va ilmiy tafakkuri shakllangan. Hakim Termiziyning ilmiy kamolotida uning otasi Ali ibn al-Hasanning xizmatlari katta. U o'z farzandi uchun nafaqat ota, balki unga nisbatan ustoz maqomida bo'lgan. Alloma otasi sabab "Ilm al-osor" (Qadimiy rivoyatlar (hadislar) haqidagi ilm) va "Ilm ar-ray" ("Fiqh ilmi") bilimlarini bolalikda o'zlashtirganini eslaydi. Otasi vafotidan keyin al-Hakim at-Termiziy o'z shahridagi olimlardan asosan tafsir, hadis va fiqh ilmlarini o'rgangan. U termizlik muhaddislar Abu Muhammad Solih ibn Muhammad ibn Nasr at-Termiziy, Solih ibn Abdulloh at-Termiziydan hadis ilmini o'rgangan. Hakim Termiziy yoshlik chog'larida Bag'dodga borishga qaror qilgan. Ammo, onasini yolg'iz tashlab ketishga ko'zi qiymay safarni ortga surgan. Shundan so'ng bir shayx (alloma Xizr alayhisalloom deb eslaydi) turli ilmlardan saboq bergan. Hakim Termiziy Makkaga haj ibodati uchun borayotganida Iroqda to'xtagan hamda hadis va fiqh ilmlarini yanada chuqur o'rgangan. Keyinchalik Xuroson shayxlaridan sanalgan Abu Turob an-Naxshabiy va Ahmad ibn Hadravayh bilan yaqin munosabatda bo'lgan, Yahya ibn al-Jalo' al-Bag'dodiy bilan hamkorlik qilgan, Shom maktabining shayxlaridan biri al-Antokiyning asarlarini o'zlashtirgan.

3. Ubaydulla Uvatov "Ikki buyuk donishmand" kitobida ba'zi muarrixlar, masalan, ash-Shaaroniy o'zining "at-Tabaqot al-kubro" asarining 78-sahifasida Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn al-Husayn ibn Bashir al-Hakim at-Termiziy shaklida keltirganligi qayd etilgan.

4. Manbalarda alloma 112, 116, 120-yil yashaganligi qayd etilgan.

5. Историко-культурные традиции эпохи Хакима Тирмизи и ее значение в мировой цивилизации. — Душанбе: Дониш, 2016. — С. 15.

6. *Al-Geyoushi I.M.* Al-Tirmidhi, his works and his opinions on Sufism: Thesis (PhD). — London: University of London School of Oriental and African Studies, 1970. — P. 10.

7. *Al-Geyoushi M.I.* The Influence of al-Tirmidhi on Sufi Thought // Islamic quarterly. — 1978. — Vol. 20. — № 3. — P. 104–115. *Heer N.* Some Biographical and Bibliographical Notes on Al-Hakim Al-Tirmidhi // The World of Islam: Studies in Honour of Philip K. Hitti, edited by James Kritzeck and R. Bayly Winder. — London, 1959. — P. 121–134; *Sviri S.* Words of Power and the Power of Words: Mystical Linguistics in the Works of Al-Hakim Al-Tirmidhi // Jerusalem Studies in Arabic and Islam. — 2002. — № 27. — P. 204–244.

8. Hakim Termiziy o'zining "Ilm al-avliyo", "Xatm al-avliyo", "Manozil al-ibod", "Ma'rifat al-asror", "G'avr al-umur" asarlarida valiylik ta'rifi, sifatleri va darajalari haqida ma'lumot bergan. Masalan, "Ilm al-avliyo" asarining birinchi bo'limida valiylik mavzusiga to'xtalib, quyidagi fikrlarni bildirgan: "Alloh taolo valiyini O'ziga tomon ko'targan va ummatlaridan unga yashirin karomat ato etgan. Ular o'zlarini yomon ishlardan uzoq tutganlar va yomon xayollardan tiyilganlar. Valiylar Alloh taoloning yerdagi xos kishilaridir. Qiyomat kuni payg'ambarlar va shahidlar ularning Alloh oldidagi maqomlarini ko'rib havas qiladilar". Ya'ni, Hakim Termiziy "valiylarga itoat qilish xuddi xalifalar va payg'ambarlarga itoat qilish kabi vojibdir", degan fikrlarni bildirgan va Alloh taoloning quyidagi oyatini misol qilib

keltiradi: "...Allohga itoat etingiz, Payg'ambarga va o'z'laringizdan (bo'lmish) boshliqlarga itoat etingiz!". Hakim Termiziy yozma merosining mazmun-mohiyati haqida aniq tasavvur bo'lmasa, yuqoridagi fikrlarni noto'g'ri talqin qilish mumkin. Shu sababli ham o'z davrida olim tazyiqqa uchragan va ma'lum muddatga ona shahrini tashlab ketishga majbur bo'lgan.

9. *Усмонов И.* Ал-Ҳаким ат-Термизий таълимотининг ибн ал-Арабий қарашларига таъсири // Имом ал Бухорий сабоқлари. — 2003. — № 4. — Б. 185.

10. Ahzob surasi. — 40-oyat.

11. *Усмонов И.* Тасаввуф. — Т.: Ислон университети, 2012. — Б. 191; *Уватов У.* Икки буюк донишманд. — Т.: Шарқ, 2005. — Б. 23.

12. تاج الدين السبكي. طبقات الشافعية الكبرى. 6 مجلدات / إعداد للنشر بواسطة مصطفى أحمد عطو. — بيروت: دور الكتب العلمية. 1999. 448 ص.

13. *Кныш А.Д.* Мусульманский мистицизм. — М.: Диля, 2004. — 237 с

14. *Massignon L.* Kitab al-Tawasin par Abou al-Moghith al-Hosayn Ibn Mansour al-Hallaj. — Paris, 1913. — 270 p.; *Адам Мец.* Мусульманский Ренессанс / Пер. с нем. Д. Е. Бертельса. — М.: Наука, 1973. — 234 с.

15. *Кныш А.Д.* Мусульманский мистицизм. — М.: Диля, 2004. — 237 с.

16. Biz foydalangan ingliz tilidagi tarjiması. Essay on the Origins of the Technical Language of Islamic Mysticism by Louis Massignon; translated by Benjamin Clark. — Indiana: University of Notre Press, 1997. — P. 16.

17. “Malomatiylik” (ملامتية) — IX asrda Nishopur hududida vujudga kelgan tasavvufiy guruh. Ibrohim Haqqul “Malomatiylik va Alisher Navoiy” nomli maqolasida “malomatiylikka” quyidagicha ta’rif bergan: “Arabcha qiynash, aziyat yetkazish, nafsga shafqat etmaslik mazmunidagi “lavm” o’zagidan paydo bo’lgan malomat va malomatiylikni o’ziga xos mafkura, bir nazariya va ishq holi deb ta’riflash mumkin”. Ko’pchilik olimlar uni bir tariqat tarzida baholagan. Abu A’lo Afifiyning (*Tasavvuf. Islomda ma’naviy hayot. — Istanbul, 1996. — B. 239*) xulosasi bo’yicha, IX asrning ikkinchi yarmida Xuroson hamda Nishopurda yuzaga chiqqan malomatiylik “riyozat yo’li bilan nafsni hirsu havas, kibr, ayniqsa riyo chirkinliklaridan tozalab, kamolga yetkazish usulidir”. “Malomatiylar atalmish jamoa. — deydi Gulpinorli (*Gulpinorli A. Tasavvuf. — Istanbul, 2004. — B. 162.*). — tasavvuf ichidan tasavvufchilarga qarshi chiqqan bir zumradir. Tangri visoliga yetishmoq uchun ular zikrga emas, balki fikrga ahamiyat berishgan. Ahli malomatga ko’ra, Olloh dargohiga faqat ishq va jazba orqali borish mumkin, zikr esa insonni xayollarga cho’mdirib, dalli-devona aylashi ham ehtimoldan yiroq emas” (<http://kh-davron.uz>). Hamdun al-Qassor (vaf. 884) malomatiylikning asoschisi sifatida e’tirof etilsa, Abu Usmon va Abu Hafslar uning rivojiga katta hissa qo’shgan (*Sviri Sara. Hakim Tirmidhi and the Malamati Movement in Early Sufism. — Oxford: One World, 1999. — P. 583–613*). Malomatiylar karromiylarning “o’zini oshkora namoyish etish orqali ta’limotini tarqatish” g’oyasiga qarshi bo’lgan. Harakatning asosiy g’oyasi — nafs tarbiyasi va riyozat. Malomatiylarni boshqa zamondosh tasavvufiy toifalardan farqlab turuvchi tomoni, ular Alloh huzurida ixlosga erishish uchun nafsni ayb va illatlardan muolaja qilishga alohida

e'tibor qaratishgan. Malomatiylarning asosiy jihatlari: maxsus kiyimga burkanib olmaslik; jahriy zikrdan xafiy zikrni afzal ko'rish; maqsadsiz darbadar yurishdan qaytarish.

18. Essay on the Origins of the Technical Language of Islamic Mysticism by Louis Massignon / Translated by Benjamin Clark. — Indiana: University of Notre Press, 1997. — P. 199.

19. *Al-Geyoushi I.M.* Al-Tirmidhi, his works and his opinions on Sufism: Thesis (PhD). — London: University of London School of Oriental and African Studies, 1970. — P. 37.

20. *Al-Asqaloniy.* Lison al-mezon. — Haydarobod, hijriy 1329–1331. Jild 5. — B. 308–310.

21. *Az-Zahabiy.* Tazkirat al-huffaz. — Haydarobod, hijriy 1333. Jild 2. — B. 197.

22. *Sviri S.* Hakim Tirmidhi and the Malamati Movement in Early Sufism // The Heritage of Sufism. — Vol. I / ed. L. Lewisohn. — Oxford: One world Publications, 1999. — P. 583–613.

23. Sara Sviri tadqiqotida Nishopur, Marv, Hirot, Balx, Ray, Bag'dod, Termiz va Buxoroda joylashgan so'fiylik ma'naviy markazlari o'rtasidagi munosabatlar bayon qilingan. "Malomatiylik", "karromatiylik", "so'fiylik" kabi tushunchalar haqida batafsil ma'lumot berib, Hakim Termiziyning nishopurlik olimlar Abu Usmon al-Hiri va Muhammad ibn al-Fazl (asli Samarqandlik) bilan yozishmalari keltirgan. Aslida, Hakim Termiziy Nishopur maktabiga ham va boshqa maktabga ham a'zo bo'lmagan. Nishopur olimlari bilan yozishmalaridan ko'rinadiki, uning fikrlari, qarashlari butkul boshqacha, deb alohida e'tirof etgan Sara Sviri.

24. *Annamarie Schimmel.* Mystical dimensions of Islam. The University of north Carolina Press Chapel Hill, 1975. — 535 p.

25. *Annamarie Schimmel.* Mystical dimensions of Islam... — P. 187.

26. *Gobillot G., Muhammad B.* Ali al-Hakim al-Tirmidhi. Le livre de la profondeur des choses. — Villeneuve d'Ascq: Presses universitaires du Septentrion, 1996. — P. 79.

27. *Joseph Marechal, Algar Thorold.* The Psychology of the Mystics. — Gloucester: Courier Corporation, 2004. — 344 p.

28. *Radtke B., O'Kane J.* The concept of sainthood in early Islamic mysticism: two works by al-Hakim al-Tirmidhi. — Surrey: Curzon Press, 1996. — P. 15.

29. <http://www.ibnarabisociety.org>

30. Ilk hijriy asrlarda Movarounnahr va Xuroson tariqatlari "so'fiy" deb emas, balki hakim, voiz, muzakkir, obid va zohid kabi nomlar bilan atalgan. "Tasavvuf", "so'fi" so'zlari X asrgacha Movarounnahr va Xuroson tariqatlariga nisbatan qo'llanilmagan. Ehtimol, shuning uchun Al-Hakim at-Termiziy o'zini "so'fiy" yoki "mutasavvif" deb ham hisoblamagan. Al-Hakim at-Termiziy so'fiycha kiyinganlarni tanqid qilgan.

31. *Chabbi J.* Remarques sur le developpement historique des mouvements ascétiques et mystiques au Khurasan: IIIe /IXe siècle — IVe/Xe siècle // Studia Islamica. — 1977. — № 46. — P. 5–72.

32. Baldick J. Mystical Islam. An Introduction to Sufism. — New York and London: New York University Press, 1989. — P. 208.

33. *Marquet Y.* Al-Hakim al-Tirmidhi et le néoplatonisme de son temps // Annales de la Faculté des Lettres et Sciences Humaines. — Dakar, 1976. — P. 263–306.

34. *Radtke B.* Al-Hakim at-Tirmidi. Ein islamischer Theosoph des 3/9. Jahrhunderts. — Freiburg: Schwarz Verlag, 1980.

35. *Sviri S.* Words of Power and the Power of Words: Mystical Linguistics in the Works of Al-Hakim Al-Tirmidhi // *Jerusalem Studies in Arabic and Islam*. — 2002. — № 27. — P. 204–244.

36. *Gobillot G.* Le langage, science des saints selon al-Hakim al-Tirmidhi // *Mystique musulmane, parcours en compagnie d'un chercheur, Roger Deladrière*. — Paris: Cariscript, 2002. — P. 59–92; *Gobillot G.* Ethique et spiritualite en islam a travers la pensee d'al-Hakim al-Tirmidhi. Le Sage de Tirmidh, mystique khurasanien (m. 318/930) // *Revue d'ethique et de theologie morale*. 2007. — 245 r.

37. *Al-Ḥakim at-Termiziy.* Яширин масалалар / Тарж. М. Исмоилов. — Т.: Наврўз, 2017. — Б. 300.

38. *The Cambridge history of Iran. Vol. 4. The period from the Arab invasion to the Saljuqs* / ed. by R. N. Frye. — Cambridge, 1975. — 711 p.

39. *Gibb H.A.R.* *The Encyclopedia of Islam*. — Brill Archive, 1967. — P. 55.

40. *Moufid Muhammad nouri.* The scholars of Nishapur, 700–1225. The University of Edinburgh for the degree or Doctor or Philosophy. 1967. — 674 p.

41. Massignon, *Essai sur les origines du lexique technique de la mystique musulmane*. — P. 258–263; *Moufid Muhammad nouri.* The scholars of Nishapur, 700–1225. — P. 94.

42. *Hujviri Ali.* *Kashf-al-Mahjub*. — Tehran, 1371. — S. 41.

43. *Nile Green.* *Sufism: A global History*. Wiley-Blackwell: 1 edition, 2012. — 286 p.

44. 2016-yilda Tojikistonda bo'lib o'tgan ("Историко-культурные традиции эпохи Хакима Тирмизи и ее значение в мировой цивилизации" mavzuida) konferensiyada fransiyalik olim Fransis Richard "Hakim Tirmidhi and bouddhism (some remarks)" nomli maqolasi bilan qatnashgan. Tadqiqotchining fikricha, Hakim Termiziyning ko'plab falsafiy fikrlariga islom dinidan oldin Termiz hududida mavjud bo'lgan buddaviylikning ta'siri katta bo'lgan. Richard o'z fikrlarini buddaviylik va Termiziy asarlarida uchraydigan tush ko'rish holatlari bilan izohlagan.

45. *Alexander Knysh.* *Islamic Mysticism: A Short History*. — Leiden: Brill, 1999. — P. 107.

46. *Alexander Knysh.* *Islamic Mysticism...* — P. 358.

47. Karromatiylik — (arabchada كَرَامِيَّة) IX–XIII asrlarda Xuroson hududida mavjud bo'lgan islomiy oqim. Karromatiylikka Abu Abdulloh Muhammad ibn Karram (vaf. 896) asos solgan. Mazkur yo'nalishning markazi Nishopur bo'lsa-da, Katta Xuroson, Movaraunnahr va Eronning sharqiy hududlariga ham yoyilgan (*Zysow.* Two unrecognized Karrami texts. 1988. — P. 580; *Porter Berkey Jonathan.* *The Formation of Islam: Religion and Society in the Near East, 600–1800*. Cambridge: Cambridge University Press, 2014. — P. 286). Karromiya Xuroson, Movarounnahr va Quddus tasavvufiy muhitida muhim o'rin tutgan. Harakat asoschisi Ibn Karrom (vaf. 869-y.) va uning izdoshlari manbalarda "so'fiy" nomi bilan qayd etilmagan. Manbalarda ularning nomi tashlab ketilgan yoki keskin tanqid bilan eslangan. Karromiylar o'z da'vat va tashviqotlarini targ'ib qilish maqsadida maxsus imoratlar — xonaqohlar barpo etishgan. Xonaqohlar Movarounnahr va Xurosonda tasavvuf tashviqot markazlari bo'lib xizmat qilgan. Hanafiy mazhabida bo'lgan karromiylar imon masalasiga

murji'iyalar nuqtayi nazaridan yondashgan. Karromiylar Allohga jism (tana) nisbati berish (tajsim)da ayblanishgan. Ibn Karrom ta'limotida keskin zohidlik hayoti ustuvor bo'lib, u quyidagi besh asosga tayangan: ixtiyoriy och yurish, Qur'onni ko'p tilovat qilish, tungi bedorliklar, kunduzlari o'zini dunyodan tiyib yurish, abrorlar bilan hamsuhbat bo'lish. Karromiylar targ'ibotda birinchilardan bo'lib xonaqohlardan foydalanib, jamiyatning quyi tabaqasiga murojaat qilgan.

48. *Alexander Knysh*. Islamic Mysticism... — P. 105.

49. *Aiyub Palmer*. The Social and Theoretical Dimensions of Sainthood in Early Islam: Al-Tirmidhi's Gnoseology and the Foundations of Sufi Social Praxis. Thesis (PhD). — USA: University of Michigan, 2015. — 374 p.

50. Shozaliya bugungi kunda ham mavjud bo'lgan so'fiylik tariqati hisoblanadi. Unga XIII asrda marokashlik Abu al-Hasan ash-Shoziliy (vaf. 656/1258) asos solgan. U butun Shimoliy Afrika bo'ylab sayohat qilib, o'z tariqatini yoygan va Misrda sezilarli muvafaqqiyatga erishgan.

51. *McGregor R. J.* Sanctity and mysticism in medieval Egypt the Wafa' Sufi order and the legacy of Ibn 'Arabi. — Albany: State University of New York Press, 2004. — P. 30.

52. 1999-yilda nashr qilingan Usmon Turarning "Tasavvuf tarixi" sarlavhali kitobida bugungi tariqatlarning ko'plari XII asrda yuzaga kelgani qayd etilgan. Ya'ni, tariqat tugal bo'lishi uchun unda insoniy (pir, shayx, murid, silsila — tasavvufiy zanjir bo'lib, shayxning Muhammad s.a.v bilan bog'lanishi), amaliy (zikr, xilvat yoki chilla, robita — muridning ruhan murshid bilan bog'lanishi), sayru suluk — tariqat g'oyasini amalga oshirish uchun qalban va ma'nau safar qilish), fikriy hamda moddiy (takya, kuloh, po'stak, bayroq) unsurlarning ma'lum bir belgilari mavjud bo'lishi kerak. Muallifning fikricha, avvalgi asrlarda mavjud bo'lgan tariqatlar ("qassoriya", "tayfuriya", "hakimiya") keyingi tariqatlardan ba'zi unsurlari kamligi bilan farq qilgan. Ular mashhur so'fiylar atrofida shakllangan tasavvuf maktablari bo'lgan. Usmon Turar "hakimiya"ni ilk so'fiy tariqatlardan biri sifatida baholab, alloma orqali tasavvufga falsafa kirib kelganligini yozgan. Tasavvufning ilmiy asoslarini uzoq tadqiq etgan Najmiddin Komilovning fikricha, "tasavvufning ilk davrida maqomot va tariqat asoslarini ishlab chiqish, so'fiylik yo'riqlarini belgilash va ilohiy haqiqatlarni el orasida yoyishda Abu Ali al Horis Muhosibiy (781–857), Zunnun Misriy (796–861), Abuyazid Bistomiy (vaf. 875), Junayd Bag'dodiy (vaf. 910), Hakim Termiziy (vaf. IX asr oxiri) va Mansur Halloj (858–922)ning xizmati katta bo'lgan. Taqiqotchilari Movarounnahrda 50 dan ortiq turli tariqatlar borligini qayd etgan. Ular bir-biridan "islomdagi ikki mazhab — shia yoki sunnaga rag'bat bilan; ikkinchidan, shariatga munosabati bilan; uchinchidan, muayyan tariqat tarqalgan aholining qadimiy tasavvur-odatlari, madaniy darajasi bilan; nihoyat, to'rtinchidan, har bir piri murshidning tarbiya usuli, ma'qul deb hisoblagan ruhiy-ma'naviy ta'sir vositalari bilan o'zaro farqlangan". N. Komilov keng yoyilgan tariqatlarni keltirib, "hakimiya" oqimi Hakim Termiziy nomi bilan bog'liqligini e'tirof etgan. Alloma maxsus xonaqo tariqatini tuzib, solik tarbiyasi bilan shug'ullanmasa-da, uning tarafdorlari bo'lganligini e'tirof etgan. O'zbekistonda Ubaydulla Uvatov Termiziylar ilmiy merosini o'rganish borasida salmoqli ishlarni amalga oshirgan. U "Ikki buyuk donishmand" nomli kitobida Hakim Termiziy "Xatm al-avliyo" asari orqali "al-hakimiya vat-termiziya" maktabiga asos solganiga ishora qilgan. Shuningdek, U. Uvatov Ibrohim Xudoyorning "Ishq Jayhunining

yo'ldoshi (al-Hakim at-Termiziyning "Xatm al-avliyo" asari)" nomli maqolasiga tayangan holda "Xatm al-avliyo" kitobi tasavvuf tarixida "hakimiy"lar deb atalmish bir guruh mashhur so'fiylar, xususan, Termiz va Balx atrofida shakllangan tasavvuf ahli uchun ma'naviy vasiyatnoma yoxud ta'lim dasturi bo'lib xizmat qilganligini ta'kidlagan. Tadqiqotchi "Al-Hakim at-Termiziy" sarlavhali risolada esa "hakimiya" tariqatining murakkabligini qayd etib, uni hatto mazhab deb ham ta'riflash mumkinligi borasida so'z yuritgan.

53. *Турар У.* Тасаввуф тарихи. — Т.: Истиклол, 1999. — Б. 180.

54. *Комилов Н.* Тасаввуф. — Т.: ТошДШИ, 2006. — Б. 72.

55. *Чўтматов Ж.* Муҳаммад ибн Али Ҳақим Термизий ва Муҳаммад ибн Али Қафқол Шоший "мақосиду-ш-шаръийя" йўналиши асосчилари сифатида // *Sharqshunoslik*. — 2016. — № 4. — Б. 149–156.

56. *Уватов У.* Икки буюк донишманд. — Т.: Шарқ, 2005. — Б. 41.

57. *Эмомали Раҳмон.* О жизни и деятельности Хакима Тирмизи // Историко-культурные традиции эпохи Хакима Тирмизи и ее значение в мировой цивилизации. — Душанбе: Дониш, 2016. — С. 26.

58. *Hujviri Ali.* *Kashf-al-Mahjub*. — Tehran, 1371. — P. 178.

59. *The Kashf al-Mahjub.* A Persian treatise on Sufism by Hazrat Ali bn al-Hujwiri (R.A.). — Pakistan: Zia-ul-Quron Publications, 2001. — P. 227.

60. *Nizami K.A.* Some Aspects of Religion and Politics in India during the Thirteenth Century. — New Delhi: Oxford University Press, 2002. — P. 53–54.